

## **Treningni o‘tkazish texnikasi**

Qatnashchilar bilan noverbal (so‘zsiz, mimika, pantomimika, qarash va hokazo) aloqa o‘rnatish:

- Gapirayotganingizda har bir tinglovchini ko‘z ostingizda tuting. Hammaga bir xil e‘tibor bering, Siz guruxdagi ba‘zi odamlarga xayrixoh bo‘lib qolmang.
- Xonada guruhning diqqatini buzmasdan harakat qiling (tez-tez va maqsadsiz yurishlardan qoching, shuningdek, guruhga o‘zingiz ko‘rinmaydigan joydan turib gapiring).
- Qatnashchilarning bosh qimirlatishi, tabbassumi va hatti harakatlari nimanidir aytmoqchi ekanligiga hohishi borligiga e‘tibor bering.
- Guruh qarshisida turing. O‘qish va trening boshlanganda o‘tirmang (xotirjam, shu bilan birga maqsadli va qat’iy bo‘ling).

### **Verbal (nutqiy) aloqa o‘rnatish:**

- Savollarni shunday tuzingki, qatnashchilar gapirsin. Bunda Sizga ochiq savollar yordam beradi: «Siz bu haqda nima deysiz?», «Nimaga?», «Qanday? «Agar? va hokazo. Agar tinglovchi «Ha», «Yo‘q» deb javob bersa, «Nega shunday gapiryapsiz?» deb so‘rang.
- O‘z ovozingiz ohangiga e‘tibor bering. Ayniqsa, qatnashchilar ichida pedagogik ma‘lumoti bo‘lmagan kishilar bo‘lsa, u holda asta-sekin va aniq gapiring.
- Qatnashchilarni o‘zingizdan ko‘proq gapirishga undang. O‘zingiz va qatnashchilarning so‘zga chiqish vaqtlarini hisobga olib boring.

- Hamma savollarga faqat o‘zingiz javob bermang. Qatnashchilar bir-birining savollariga javob berishi mumkinligini unutmang. Bu Sizning zaxirangizni ko‘paytiradi. «Kimdir bu savolga javob bera oladimi?» deb so‘rang.

- Qatnashchilarning fikrini o‘z so‘zingiz bilan takrorlab, bir oz o‘zgartirib ifoda qiling. Bu Sizga gapiruvchini tushunishingizni yetarli darajada nazorat qilishga imkoniyat beradi va muhokama savollarini tushunishni kuchaytiradi.

- Bahs umumlashtirilgan natijalari mohiyatini har bir ishtirokchi to‘g‘ri tushunganiga va to‘g‘ri yo‘nalishda ketayotganligiga amin bo‘ling. Bu qarama-qarshiliklarni ko‘rish va xulosa chiqarish uchun qulay fursatdir.

- Shaxsiy tajribangiz mazkur bahsga mos kelsa, qatnashchilar fikrlarini mustahkamlang. «Bu menga o‘tgan yilgi voqeani eslatadi» - deyishingiz mumkin.

Treninglarni samarali amalga oshirishda o‘qitish metodlarining tanlanishiga katta ahamiyat beriladi. Chunki, o‘qitish metodi treningning maqsad-mazmuni, shakli, usullari tizimida muhim o‘rinni egallab, jarayondan ko‘zlangan maqsad va kutilayotgan natijani kafolatlovchi vosita sifatida xizmat qiladi.